

ERKIN VOHIDOV IJODINI O'RGATISHDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Saidova Dildora

Baxtiyarovna

TDTU 3-son akademik litseyi

o'zbek tili va adabiyot fani

o'qituvchisi

Annotatsiya: Xalq shoiri Erkin Vohidov she'riyatning ham barmoq, ham aruz, ham sərbast birdek yuksak saviyada ijod qilgan. Adib asarlarida she'r va shoir haqidagi qarashlar bayon etilgan. Erkin Vohidov ijodi va u yaratgan asarlar adabiyotimiz tarixidagi nodir hodisa sifatida o'quvchilar ma'naviyatini boyitishga, ularning estetik didini o'stirishga xizmat qilishi sababli ta'lim-tarbiya amaliyotida ulardan o'z o'rnida va unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: Xalq shoiri, badiiy asar, she'riyat, til, millat, g'oya, talqin, tahlil, falsafiy yondashuv, badiiy mahorat, estetik ideal, poetik joziba, ijodkor fenomeni.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi qaroriga muvofiq uzluksiz ta'lim, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim mazmuni yangilandi, o'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS kompetentsiyali yondashuv asosida qayta ishlandi.

Mazkur kompetentsiyali yondashuv asosida shakllantirilgan DTSni amaliyotga joriy etish ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini yangi innovatsiyalar kiritish orqali yangilashni talab etadi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi" [1, 16]. Ta'lim bosqichlarida el hurmatiga sazovor bo'lgan,

hayot yo'li yoshlar uchun ibratga aylangan, asarlari esa ular ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi so'z san'atkorlari ijodini o'rgatish adabiy ta'limning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Xalq shoiri Erkin Vohidov ana shunday ijodkorlardan bo'lib, boshlang'ich ta'lim darsliklaridanoq uning ijodi bosqichma-bosqich, uzviy va uzluksizlikda o'quvchiga o'rgatiladi. Erkin Vohidov ijodi va u yaratgan asarlar adabiyotimiz tarixidagi nodir hodisa sifatida o'quvchilar ma'naviyatini boyitishga, ularning estetik didini o'stirishga xizmat qilishi sababli ta'lim-tarbiya amaliyotida ulardan o'z o'rnida va unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Maktabda adabiyot o'qitishning vazifalari o'quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, ularni badiiy asar o'qiydigan, tushunadigan va tahlil eta oladigan, o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalar, jumladan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasini tarkib toptirish imkonini beradi.

Erkin Vohidov adabiyotning turli janrlarida ijod qilib, asardan asarga o'sa bordi. Uning o'ziga xos iste'dodi, avvalo, shoir sifatida o'zbek she'riyatiga kiritgan yangiliklarida yorqin namoyon bo'ladi. Erkin Vohidov o'z she'riyatida, asarlarida inson, mehnat, sadoqat, samimiylik, do'stlik, halollik, muhabbat va go'zallik singari adabiy dolzarb mavzularni tasvirlaydi. Uning har bir she'rida davrning yorqin manzarasi, xalqning o'lmas psixologiyasi, millatning monumental qiyofasi to'la aks etadi. Shoir she'rlarida ilgari surayotgan g'oyani o'quvchiga majbur qilib tushuntirmaydi, satrlar zimmasiga og'ir yuk ortmaydi. Oddiygina so'zlar va lirik qahramonning xatti-harakati orqali yengilgina taqdim etadi. Ayniqsa, uning "O'zbekim" qasidasida milliylik, o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixining o'ziga xos poetic ifodasi tasvirlanadi. She'rda millat ruhi, o'zligini anglash g'oyalari badiiy mahorat bilan ifodalangan.

"Nido" dostonida esa insoniyat boshiga tushgan eng katta falokat-ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murg'ak o'smir taqdirida qoldirgan ayanchli

oqibatlari tasvirlanadi. Dostonda bola ruhiyatiga xos jihatlar haqqoniy va ishonchli tasvirlangan.

Erkin Vohidov ijodida ayniqsa, she'riyatida voqeabandlikka, rivoyat va hikoyat usuliga moyillik kuchli. Hajviy she'rlarining ko'pchiligi jumladan, "Donish qishloq latifalari" boshdan oyoq shu yo'sinda bitilgan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rganishda o'qituvchi, shu jumladan o'quvchi o'z oldiga kommunikativ kompetentsiyani tarkib toptirishni maqsad qilishi kerak.

Hozirgi sharoitda adabiyot o'qituvchisidan aloqa o'rnatuvchi (kommunikatorlik) sifatiga ega bo'lish ham talab etiladi. Bunda sinfdagi barcha o'quvchilar bilan birdek ta'limiy aloqa o'rnatish, o'quvchilarni tinglay olish, muammoni yechish uchun mantiqiy izchillikka ega savollarni berish hamda o'quvchilarning savollariga qisqa, aniq, lo'nda va yo'naltiruvchi javob bera bilish, munozarani tashkillashtirish, o'quv xonasi (yoki auditoriya)da ijodiy muhitni hosil qilish kabilar alohida o'rin tutadi [3, 70]. Shuni qayd etish kerakki, umumiy o'rta ta'lim bilan bir qatorda oliy ta'lim muassalarida ham Erkin Vohidov kabi shoir ijodini o'rgatishda didaktik o'yin texnologiyasining musobaqa darslari, o'yin mashqlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash, guruhlarda o'qitish, "Yelpig'ich" yoki "Bumerang", "Birgalikda o'qiymiz" metodlari, muammoli ta'lim texnologiyasining "Fikriy hujum", "Keys stadi" metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish barobarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bu esa o'quvchilarning Erkin Vohidov ijodidagi jozibalarni anglashlariga imkon beradi, shu bilan bir qatorda ularda badiiyatdan zavqlanish tuyg'ularini kamol toptiriladi.

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda adabiyot darslarida o'tkaziladigan "Nazm va navo" darslari, kechalar va tanlovlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda tarkib toptiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratililadi:

Tayanch kompetentsiyalar maktab o‘quv rejasidan o‘rin olgan barcha o‘quv fanlari mazmuni va o‘qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar sanaladi;

Umumiy (predmetli) kompetentsiyalar o‘quv rejadan o‘rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiymatematik va amaliy o‘quv fanlarni o‘qitishda o‘zaro fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar nazarda tutiladi;

Xususiy kompetentsiyalar esa, ta‘lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me‘yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, ta‘lim jarayoniga kompetentsiyali yondashuvni tatbiq etish muhim didaktik zarurat hisoblanadi va ta‘lim bosqichlarida Erkin Vohidov ijodini o‘rgatishda pedagogik kompetentlikni shakllantirish yo‘llarini tadbiq etish, o‘quvchilarda ijodkorlar shu jumladan, Erkin Vohidov she‘rlarini, ijodini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan foydalanish, ularda she‘riyatdan zavqlanish tuyg‘ularini va shu tuyg‘u ta‘sirida badiiyatdan zavqlanishni kamol toptirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T.: O‘zbekiston, 2017. -592 b.
2. Q.Yo‘ldashev maktabda Erkin Vohidov ijodini o‘rgatish.,”Til va adabiyot ta‘limi” jurnali. 2006 y. 6-son.
3. M.Sariboyeva umumta‘lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o‘rgatish. Ped. fan. nom... diss. –T.: 2011. 163 b.
4. Uzluksiz ta‘lim tizimini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalalari: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – T.: 2016 y.